

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI O'STIRISH VOSITALARINI QO'LLASH VA TADBIQ ETISH PSIXOLOGIYASI

*Akramova Husnora Faxriddin qizi  
Marg'ilon shahar 12-DMTT tarbiyachisi,  
Quqon pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o'stirishda aqliy o'yinlardan foydalanishni tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda ushbu maqolaning maqsadi, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o'stirishda aqliy o'yinlardan foydalanishni nazariy va amaliy jihatdan o'rghanishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, metod, tajriba, tashxis, taddiqot, o'yin, trening suhbat, kuzatish, metodi

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xalq ta'limi tizimi faoliyatini me'yorashtiruvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom" kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida ko'rsatilishicha bugungi muktab boladan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko'nikmasini, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilishni ham talab etadi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqeа-hodisani mustaqil ravishda tahlil etish va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini o'stirish, fikr yuritish jarayonlarini shakllantirish va shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga yaratuvchanlikni singdirish ota-ona, tarbiyachi va pedagoglarning muhim vazifasidir. Ana shunday ma'suliyatli vazifa hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilar zimmasiga yuklatilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri shakllanishi muammolari pedagog va psixologlar tomonidan atroficha talqin etilgan bo'lsada, bolalarning tafakkurini rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy izlanishlarga zarurat sezadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning tafakkuri ancha rivojlangan bo'lsada, hali impulsivligi, ixtiyorsiz va beqarorligi bilan ajralib turadi. Ammo, mazkur xususiyatlar bolalar tafakkuridagi yangi jihatlarning shakllanishi uchun, pedagogic-psixologik ta'sir ko'rsatish uchun bir imkoniyatdir. Shu tufayli ular bolalar bilan maktabgacha ta'lim

muassasasida olib boriladigan ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarning ta’siri natijasida ixtiyoriy fikr yuritish jarayonlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Lekin bu imkoniyat doimo qulay ta’lim va tarbiyaviy sharoitni, vaziyatlarni talab qiladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘zining tafakkuri tufayli o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribani faol va ongli ravishda o‘zlashtiradi, atrof-muhitdagi narsalar va hodisalar bilan muloqotga kirishadi. Bu bolada faoliyat mayllarining rivojlanishi yordamida amalga oshiriladigan xattiharakatlar, til boyliklari, bolalar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, qobiliyatlarning o‘sishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda ularga oila a’zolari va tarbiyachilar yaqindan yordam beradilar. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirishda aqliy o‘yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli sohaga doir savollarning tug‘ilishi ularda tafakkur jarayonlarining faollashayotganligidan darak beradi. Bolalar savollariga o‘z vaqtida javob topa olmasliklari yoki kattalarning savoliga ahamiyat bermasliklari tufayli tafakkuri rivojlanishi o‘rniga so‘na boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur jarayoni biror narsadan taajjublanishi, hayratlanishi natijasida turli savollarning tug‘ilishi tufayli hosil bo‘ladi. Ko‘pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcha savol berib yuborsalar, «ko‘p mahmadona bo‘lma», «sen bunday gaplarni qayerdan o‘rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinadi va savollariga o‘zi javob topishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa mutlaqo savol bermaydilar. Bunday bolalar bilan ish olib borishda tafakkur jarayonlari shakllanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. mashg‘ulotlar va sayohatlar davrida tarbiyachilar turli savol berib, ularni faollashtirishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini shaqlantirishda qorida keltirilgan omillarni hisobga olish zarurligi tufayli Ilmiy maqolaimizni “Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirishda aqliy o‘yinlardan foydalanish” deb nomladik va tadqiq etishni lozim topdik. Metodika: Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirishda aqliy o‘yinlardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari.

#### **Ilmiy maqolada qo‘llanilgan metodlari:**

1. **Kuzatish metodi** yordamida tajriba sinfidagi bolalar tafakkurini o‘stirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda fikr yuritish jarayonlarining shakllanishi to‘g‘risida ma’lumot to‘plash.

2. **Suhbat metodi** orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda fikr yuritish jarayonlarini shaqlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarining tafakkurining o‘sishiga ta’sirini o‘rganish.

3. **O‘yin va trening** usullarini qo‘llab maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini o‘stirish bo‘yicha sinov-tajriba ishlarini olib borish va tahlil qilish.

## Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va akliy jixatdan rivojlantirish, ularning ruxiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va extiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy kadriyatlarg, mustakillik goyalariga sodik xolda voyaga yetib borishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga quyilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga quyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish davlat talablari asosida ishlab chiqilgan tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda xalqimiz oldiga har tomonlama garmonik rivojlangan kishini tarbiyalashdek muhim vazifani qo'ydi. Mustaqil davlat quruvchisi aqliy jihatdan yetuk bo'lishi lozim, bu esa kishi tafakkurini yuksak darajada o'sgan bo'lishini talab etadi. Aqliy tarbiya esa ma'lumki, bolaning juda yoshligidan, ya'ni maktabgacha yoshdagi davridan boshlab rivojlantirib boriladi. Shuning uchun ham bu davrda bolani aqliy jihatdan o'stirishga alohida e'tibor berish zarur. Bolaning aqliy jihatdan o'sishida turli xil ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarning roli katta. O'yin – doimo xayotni aks ettiradi. O'yin o'zining kelib chikishiga ko'ra, yo'naliш va mazmuniga ko'ra ijtimoiy vokelik xisoblanadi. O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, xissiyoti, extiyoji, qiziqishlari, ta'sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o'yinda amaliy ehtiyojlarga karam bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita extiyoji va qiziqishlaridan kelib chikadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rangbarangligi bilan ajralib turadi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola xarakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'laydi; o'yin jarayonida bolani hayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo'ladi. O'yin tarbiyaning muxim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, xali o'zlarining kuchlari ham, aqlari ham yetmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyatini orqali o'zlashtiradilar. O'yin orqali ular voqelikdagi narsa va hodisalarni bilib oladilar. O'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihatni namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiyl kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangacha nomlash holatidan kelib chiqib, subyekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini

o‘tovchi narsalarning aksariyatidan o‘yinda bevosita, obyekt sifatida foydalaniadi. O‘yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to‘g‘risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog‘liq jihatini aks ettiradi. Bolaning aqliy o‘sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o‘tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, subyekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatiniaks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. O‘yin bola xayotining uzviy qismidir. O‘yin orqali bola bilim va ma’lumot oladi, aqliy jihatdan rivojlanadi. Atrofdagi muhit bilan, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, qush va hayvonlar, o‘simliklar dunyosi bilan tanishadi.

Inson faoliyati, mehnati, turmushidan boxabar bo‘ladi. Yuqorida aytilganidek, narsa bilan o‘yin harakatlarining takomiillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O‘yin harakatlarining qisqarishiva umumlashuvi ularning aqliy ko‘rinishidagi mantaqan izchil, yig‘iq shaklga o‘tishning asosini tashkil qiladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalardan biri didaktik o‘yin hisoblanadi. Unda bola atrof-muhitga voqeа va hodisalarni aks ettirib xayolan ularni qayta tiklaydi. Didaktik o‘yinlar ham bolaning aqliy jixatdan o‘sishiga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi va bolalarning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq madaniyati, aqliy qobiliyatları takomillashadi. Xulosa qilib aytganda, katta yoshdagi bolalar taraqqiyotida aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Chunki aql his - tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Bola o‘yin faoliyatida aqliy jihatdan shakllanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. 3eyer E.F. Psixologiya professiy. Yekaterinburg, 1999. – 184 s.
2. Klimov Ye.A. Psixologiya professional’nogo samoopredeleniya. Rostov. N.D., 1996.-382 s.
3. Kondakov I.M., Suxarev A.V. Metodologicheskiye osnovaniya zarubejnix teoriy professionalnoy razvitiya//Voprosi psixologii. 1989. №5. – S. 157-164
4. Kudryavsev T.V. Issledovaniye psixologicheskix osobennostey professionalnogo stanovleniya. – M., 1988. – 145 s